

IJORCES

**INTERNATIONAL JOURNAL
OF CONFERENCE SERIES ON EDUCATION
AND SOCIAL SCIENCES.**

**PUBLISHER: ÇORUM: OGERINT -INTERNATIONAL
ORGANIZATION CENTER OF ACADEMIC RESEARCH**

IJORCES

**International journal of conference series on education
and social sciences. (Online)**

March 2026

Science Editor: **Cetin Avci**
(*Kadir Has University*)

Copyright © 2025

By Çorum: Ocerint -International Organization Center of Academic Research

All rights reserved.

Available at ijorces.org

Published:

Çorum: Ocerint -International Organization Center of Academic Research

ISSN 2717-7076

Bursa

Bursa, Turkey

Editorial Board Members

Prof. **Hakan Mete Dogan.** Tokat Gaziosmanpasha University, Turkey

Prof. **Afsun Sujayev,** Institute of Additive Chemistry of the ANAS, Azerbaijan

Prof. **Nadir Mammadli,** Azerbaijan Architecture and Construction University, Azerbaijan

Prof. **Munevver Sokmen,** Konya Food and Agriculture University, Turkey

ELSEVIER



SSRN
Electronic Journal
Library

Universal
Impact Factor



ALOQA KORXONALARIDA MOLİYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING KONSEPTUAL MODEL VA ISTIQBOLLARI

Ismailov Xusanboy Maxammadqosim o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi
husanboyismailov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada aloqa korxonalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning konseptual modeli va istiqbollari tadqiq etilgan, mavzuning dolzarbliligi atroflicha o'rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: korxona, aloqa, telekommunikatsiya, moliyaviy barqarorlik, samaradorlik.

КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ СВЯЗИ

Исмаилов Хусанбой Махаммадкосим угли

Независимый исследователь Ташкентского государственного
экономического университета
husanboyismailov@gmail.com

Аннотация: В данной статье исследованы концептуальная модель и перспективы обеспечения финансовой устойчивости предприятий связи, всесторонне изучена актуальность темы, а также разработаны выводы и предложения.

Ключевые слова: предприятие, связь, телекоммуникация, финансовая устойчивость, эффективность.

CONCEPTUAL MODEL AND PROSPECTS FOR ENSURING FINANCIAL STABILITY IN TELECOMMUNICATIONS ENTERPRISES

Ismailov Khusanboy Makhammadkosim ugli

Independent Researcher of Tashkent State University of Economics
husanboyismailov@gmail.com

Abstract: This article examines the conceptual model and prospects for ensuring financial stability in telecommunications enterprises, comprehensively analyzes the relevance of the topic, and develops conclusions and recommendations.

Keywords: enterprise, communication, telecommunications, financial stability, efficiency.

Bugungi kundagi sohaga oid tadqiqotlarda aloqa korxonalarida moliyaviy barqarorligini ta'minlashning konseptual modelini yaratish va mavjudlarini ta'komillashtirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotlarga ko'ra, raqamli transformatsiya sharoitida, "big data", raqamli aktivlar va "agile" (boshqarishning moslashuvchan va tezkor shakli) tuzilma, resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish - moliyaviy barqarorlikning asosiy drayverlari hisoblanadi.

P.C. Verhoef va boshqalarning fikricha, raqamli transformatsiyaning uch bosqichi ajratiladi :

- 1) Digitization - analog ma'lumotlarni raqamli shaklga o'tkazish;
- 2) Digitalization - raqamli texnologiyalar orqali biznes jarayonlarni o'zgartirish;

3) Digital transformation - yangi biznes-modellar yaratishga olib keluvchi kompaniya miqyosidagi strategik o'zgarish.

Mazkur yondashuvga ko'ra, korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes model transformatsiyasi, raqamli ekotizim va daromad tarkibi o'zgarishi konseptual asos bo'lib xizmat qiladi.

H.Markowitzning daromad diversifikatsiyasi va risk bo'yicha tadqiqotlarida "diversifikatsiya - risk kamayishi" tamoyili ko'p bora ta'kidlangan .

Fikrimizcha, yuqoridagi "diversifikatsiya - risk kamayishi" tamoyili moliyaviy boshqaruvning fundamental qoidalaridan biri sifatida shakllangan bo'lib, mazkur yondashuv aktivlar tarkibini kengaytirish orqali umumiy portfel tavakkalchiligi pasayishini nazariy jihatdan asoslaydi. Ushbu konsepsiya klassik moliya nazariyasida yuqori metodologik ahamiyatga ega bo'lsa-da, uni korxona darajasidagi real moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlariga to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etish ayrim masalalarni keltirib chiqaradi:

Birinchidan, Markowitz modeli riskni asosan statistik dispersiya va kovariatsiya orqali baholaydi, bu esa telekommunikatsiya korxonalari kabi kapital sig'imi yuqori, texnologik sikllari uzoq va tartibga solinuvchi tarmoqlarda riskning institutsional hamda strategik komponentlarini yetarli darajada aks ettirmaydi. Ya'ni, "O'zbektelekom" AK kabi korxonalarda risk faqat daromadlar o'zgaruvchanligi bilan emas, balki tarif siyosati, investitsion majburiyatlar, texnologik modernizatsiya holati va raqamli transformatsiya tezligi bilan ham belgilanadi;

Ikkinchidan, diversifikatsiya har doim ham riskni kamaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'lavermaydi. Chunki, aloqa korxonalarida xizmatlar portfelini kengaytirish (masalan, broadband, raqamli servislar, IT-yechimlar) operatsion murakkablikni oshirishi, boshqaruv xarajatlarini ko'paytirishi va qisqa muddatda xarajatlarni ko'paytirishi mumkin. Bu holat Markowitz tamoyilining statik portfel sharoitlariga mos kelishi, biroq real sektor korxonalarida dinamik xarajatlar va investitsion risklarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi;

Uchinchidan, klassik diversifikatsiya yondashuvi risklar o'rtasidagi barqaror kovariatsiya mavjudligini hisobga oladi. Amalda esa telekommunikatsiya sohasida risklar ko'pincha tizimli xarakterga ega bo'lib, makroiqtisodiy shoklar, valyuta kursi, texnologik standartlarning almashishi kabi omillar bir vaqtning o'zida barcha daromad yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatadi. Bunday sharoitda oddiy daromad diversifikatsiyasi riskni sezilarli kamaytirmasligi mumkin.


Umuman olganda, Markowitzning "diversifikatsiya - risk kamayishi" tamoyili telekommunikatsiya korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda zarur, biroq yetarli shart hisoblanmaydi. Diversifikatsiya riskni kamaytiruvchi mexanizm sifatida faqat quyidagi sharoitlarda samarali ishlaydi:

- xizmatlar o'rtasida iqtisodiy sinergiya mavjud bo'lsa;
- investitsion yuklama bosqichma-bosqich taqsimlansa;
- risk boshqaruvi raqamli monitoring hamda strategik portfel optimallashtiruvchi bilan integratsiyalashgan bo'lsa, samarali hisoblanadi.

Shu bois, "O'zbektelekom" AK misolida diversifikatsiyani klassik portfel yondashuvi sifatida emas, balki moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi kompleks mexanizm - ya'ni, daromad manbalari diversifikatsiyasi, investitsiya portfeli balanslashuvi va risklarni institutsional boshqarish tizimi integratsiyasi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Demak, strategik diversifikatsiya, iqtisodiy sinergiya, investitsiya transformatsiyasi, moliyaviy tuzilma, risk boshqaruvi, moliyaviy natija sifati va moliyaviy barqarorlik kabi latent (to'g'ridan-to'g'ri kuzatilmaydigan, bir nechta kuzatiladigan indikatorlar orqali statistik modellashirish asosida baholanadigan) o'zgaruvchilar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini tizimli shaklda SEM modeli sifatida quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasm).

Taklif etilayotgan SEM modeli "O'zbektelekom" AKda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashni bir bosqichli moliyaviy natija sifatida emas, balki strategik diversifikatsiyadan boshlanib, iqtisodiy sinergiya, investitsiya transformatsiyasi va moliyaviy tuzilmaning takomillashuvi orqali bosqichma-bosqich shakllanadigan integratsiyalashgan jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi. Modelga ko'ra, diversifikatsiya moliyaviy barqarorlikka to'g'ridan-to'g'ri emas, balki sinergiya va investitsiya portfeli transformatsiyasi orqali ta'sir ko'rsatadi, bu esa uning ta'siri vositachilik mexanizmlari orqali amalga oshishini ko'rsatadi.



1-rasm. Aloqa korxonalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning diversifikatsiya-sinergetik SEM modeli

Shu bilan birga, moliyaviy tuzilmaning optimallashtirish risk boshqaruvi tizimining samaradorligini oshiradi va bu orqali moliyaviy natijalar sifati yaxshilanib, barqarorlik asosi (tayanchi) shakllanadi. Demak, modelda moliyaviy barqarorlikni buxgalteriya ko'rsatkichlari yig'indisi sifatida emas, balki kapital tuzilmasi, pul oqimlari barqarorligi va riskka mos natijalar integratsiya sifatida ifodalangan.

Modelda tashqi omillarning alohida blok sifatida kiritilishi moliyaviy barqarorlik shakllanishi ichki boshqaruv qarorlarigagina emas, balki tartibga soluvchi (institutson) muhit, raqobat sharoiti va texnologik o'zgarishlar ta'siriga ham bog'liq ekanini ko'rsatadi. Bu esa diversifikatsiyaning samarasi barcha holatlarda avtomatik ravishda namoyon bo'lmasligini, uning ta'siri muhit sharoitiga bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Shu tariqa, ishlab chiqilgan model "O'zbektelekom" AKda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmini tizimli ravishda ifodalab, diversifikatsiyaning sinergiya, investitsiya transformatsiyasi va integratsiyalashgan risk boshqaruvi orqali barqarorlikka transformatsiya qiluvchi ko'p bosqichli konseptual asos sifatida ifodalaydi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, korxona moliyaviy barqarorligini resurslarga asoslangan yondashuv nuqtai nazaridan izohlash strategik boshqaruv nazariyasida muhim o'rin egallaydi. Jumladan, J.Barney korxonaning barqaror ustunligi tashqi muhit emas, balki uning ichki resurslari va imkoniyatlari bilan belgilanishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, korxona resurslari barqaror raqobat ustunligining manbai bo'lishi uchun ular qiymat yaratuvchi, noyob va raqobatchilar tomonidan oson taqlid qilib bo'lmaydigan xususiyatga ega bo'lishi lozim .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1.Verhoef P.C., et al.Digital transformation: A multidisciplinary reflection and research agenda // Journal of Business Research. Volume 122, January 2021, Pages 889-901
<https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2019.09.022>.
- 2.Markowitz H. Portfolio Selection // The Journal of Finance. Volume 7, Issue 1, March 1952. Pages 77-91.
- 3.Abduqodirov A. (2021). Telekommunikatsiya korxonalari iqtisodiyoti.
- 4.Barney J. Firm resources and sustained competitive advantage // Journal of Management. Vol. 17(1), 1991. pp. 99-120.
- 5.Manuel Castells. (2010). The Rise of the Network Society.
- 6.Eli Noam. (2019). Telecommunications Economics.

ELSEVIER



SSRN
Electronic Journals & Research

Universal
Impact Factor